

**TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI
KAFEDRASI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
TASHKILIY-METODIK MEXANIZMLARI**

**ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯ ВУЗОВ В УСЛОВИЯХ
ТРАНСФОРМАЦИИ**

**ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL MECHANISMS OF
INCREASING THE EFFICIENCY OF THE DEPARTMENT OF HIGHER
EDUCATION INSTITUTIONS IN THE CONDITIONS OF
TRANSFORMATION**

Djalalov Baxromjan Begmurzayevich

Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrası dotsenti,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: b_djalalov1989@mail.ru / Tel.: (+998-90) 290-62-29

<https://orcid.org/0000-0002-7895-917X>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada transformatsiya tushunchasining mazmuni va mohiyati falsafiy, sotsiologik, siyosatshunoslik, psixologik, pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari kafedrası faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar yetarli emas, chunki kafedra faoliyatining samarali tashkil etish uchun uning barcha darajalarida ta'limni zamonaviy tashkil etish asosida boshqariladigan intellektual texnologiyalardan foydalanish lozim. Shuning uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiritildi: strategik rivojlanish bo'yicha qarorlarini qabul qilish asosida ta'limni takomillashtirishda o'z vaqtida o'zgartirishlarga munosabat bildirish, kafedraning barcha jarayonlarini uzluksiz monitoringini ta'minlash, dinamik o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitlariga tezkor munosabatni ta'minlash, innovatsion faoliyatni motivatsiya mexanizmini rivojlantirish. Ushbu tashkiliy-pedagogik shartlarni amalga oshirish natijasida kafedraning implementatsiya mexanizmidan (intellektual axborot muhitini amaliy amalga oshirishni ta'minlash vositalari majmui) foydalangan holda ta'lim sifatini, o'z-o'zini baholash, bashorat qilish va strategik rejalashtirish imkonini beruvchi ma'lumotlarni intellektual tahlil etish va vizualizashtirish orqali axborot

kommunikatsiya muhitini rivojlantirishni ta'minlash amalga oshirilishi asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: *transformatsiya, oliy ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, kafedra, raqamlashtirish, ta'lim sifati, tashkiliy-metodik mexanizmlar, jamiyat, demokratlashtirish, intellektual tizimlar.*

Аннотация.

В данной статье анализируется содержание и сущность понятия трансформации с философской, социологической, политологической, психолого-педагогической точки зрения. Также в условиях трансформации организационно-педагогические условия повышения эффективности кафедры вуза являются недостаточными, поскольку для эффективной организации деятельности кафедры необходимо использовать интеллектуальные технологии, управляемые на основе современной организации образования на всех уровнях. Поэтому в организационно-педагогические условия были включены: реагирование на своевременные изменения в совершенствовании образования на основе принятия решений по стратегическому развитию, обеспечение постоянного контроля за всеми процессами кафедры, динамичное изменение условий внешней среды, обеспечивающее оперативное реагирование, разработка механизма мотивации инновационной деятельности. В результате реализации данных организационно-педагогических условий с использованием механизма реализации кафедры (совокупности инструментов обеспечения практической реализации интеллектуальной информационной среды) качество образования, самооценка, прогнозирование и стратегическое планирование данных интеллектуально анализируются. Это оправдано для обеспечения развития информационно-коммуникационной среды посредством визуализации.

Ключевые слова: *трансформация, высшее образование, вузы, кафедра, цифровизация, качество образования, организационно-методические механизмы, общество, демократизация, интеллектуальные системы.*

Abstract.

This article analyzes the content and essence of the concept of transformation from a philosophical, sociological, political science, psychological, and pedagogical point of view. Also, in the conditions of transformation, the organizational-pedagogical conditions for increasing the effectiveness of the department of higher education institutions are not sufficient, because for the effective organization of the department's activity, it is necessary to use intellectual technologies that are managed on the basis of the modern organization of education at all levels. Therefore, the following were included in the organizational and pedagogical conditions: reacting to timely changes in the improvement of education on the basis of making decisions on strategic

development, ensuring continuous monitoring of all processes of the department, dynamically changing external environmental conditions ensuring prompt response, developing a motivation mechanism for innovative activity. As a result of the implementation of these organizational and pedagogical conditions, using the implementation mechanism of the department (a set of tools for ensuring the practical implementation of the intellectual information environment), the quality of education, self-assessment, forecasting and strategic planning of data are intellectually analyzed. It is justified to ensure the development of the information communication environment through visualization.

Key words: *transformation, higher education, higher education institutions, department, digitization, quality of education, organizational-methodical mechanisms, society, democratization, intellectual systems.*

KIRISH

O'zbekistonda jamiyat transformasiyalashuvi bilan bog'liq voqeliklar taraqqiyotimizni belgilab olish jarayonida davlat tuzilmalari bilan birgalikda jamiyatni isloh qilish, uning ilmiy boshqarishni takomillashtirish zaruratini vujudga keltirmoqda. Zero, "...inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo'lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g'oyaga tayanishi hamda "Davlat-inson uchun", "inson-jamiyat-davlat" tamoyillari asosida tashkil etilishi darkor. Tarix shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha sivilizatsiyalar, madaniyat va dinlar inson huquqlari to'g'risidagi tayanch tushunchalarning shakllanishiga asos bo'lgan ezgu g'oyalar ta'sirida vujudga kelgan" [1; 59-b]. Ta'kidlash joizki, transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari kafedrası faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-metodik mexanizmlarini takomillashtirish juda muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Transformatsiya – davlatning fundamental o'zgarishidir. Transformatsiya so'zi lotin tilidagi "transfor" va "matio" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "o'zgarish" va "oldinga" degan ma'nolarni anglatadi. Jamiyat va davlat o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Transformatsiya asosiy sifat o'zgarishlarini anglatadi, agar o'zgarishlar ijtimoiy voqelik va zaruriy ehtiyoj asosida vujudga kelsa, ularning aks – sadolari odatda jamiyat va davlat hayotning barcha sohalarida sezilib, uning eng muhim sifatini o'zgartiradi.

Transformatsiya shunchaki islohot yoki o'zgarish jarayoni emas, balki jamiyat va davlatning barcha jabhalarda bir holatdan ikkinchi holatga butunlay o'tish jarayonidir. Transformatsiya jarayonida davlat va jamiyat hayotida sifat o'zgarishlari kuzatiladi, ya'ni sifat jihatdan yangi bosqichga o'tilish tushuniladi. Davlatlar va jamiyatlarning

rivojlanishda o‘zaro aloqadorlik muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiy barqarorlik, tabiiy resurslar, davlat va jamiyat hamkorligi, ishchi kuchi kabi ichki kriterialar orqali transformatsiyaning vujudga kelishi ham tezlashadi [27].

Tadqiqotchilar fikricha “Transformatsiya-kelajakdagi modelni shakllantirish yo‘lida qayta tiklanmaydigan va yangi sifatga o‘tishning ma’lum bir holatini tashkil etuvchi tizimlardagi tub o‘zgarishlarning sifat xususiyatlarini baholash zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayondir” [19; 303-308-b]. Bundan ma’lum bo‘ladiki, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-siyosiy tizimlarning o‘zgarishini, ularning xususiyatlarini, shuningdek, ularning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish bilan jamiyat transformatsiyalashuvining mohiyatini bilish mumkin ekan.

Transformatsiya masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan D.Grigorenko fikricha “Transformatsiya - tizimning qisqa muddatda keskinlik bilan o‘zgarishini anglatadi. Jamiyatning transformatsiyasi esa boshqaruvda ortda qolish natijasidir” [18; 30-35]. Bunga o‘z munosabatini bildirgan tadqiqotchi M.Yunusova “Buning natijasida esa uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan, shu vaqtga qadar samarali ishlab kelgan tizimlar, o‘zgarishlarning taraqqiyparvar xususiyatiga ega bo‘lmaganligi sababli yo‘qolib ketishi ham mumkin” [16; 18-b], deb ta’kidlaydi.

Xususan bu borada Amerikalik faylasuf, sotsiolog olim I.Vallersteyn “Jamiyat transformatsiyalashuvi yo‘lida kutilmagan to‘siqlar paydo bo‘lishi mumkin, bu esa butun trayektoriyani o‘zgartiradi. Sinergetik tahlil shuni ko‘rsatadiki, har qanday dinamik jarayon bifurkatsiya (ikkiga bo‘linish) nuqtalarida o‘z yo‘nalishini o‘zgartirishi mumkin” [6; 45-b], deb ta’kidlab o‘tadi.

XIX-asrning 2-yarmidan boshlangan ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi jamiyat transformatsiyalashuvida mavjud muammoning ijtimoiy-psixologik talqinining shakllanishiga olib kelmoqda. Ommaviy ijtimoiy ong evolyutsiyasini tushunish uchun o‘sha davrdagi ommaviy jamiyat tushunchalari katta qiziqish bilan o‘rganish kerak. Bundan ma’lum bo‘ladiki, chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar holati o‘zgaruvchan va barqaror qadriyatlar va manfaatlar jamiyat transformatsiyalashuvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga bizningcha, jamiyat transformatsiyalashuvi jamiyatning ma’lum bir sohasining mazmuni va funktsiyalarini o‘zgartirish emas, balki voqeylikda strategik o‘zgarishlarni optimallashtirish, ortiqcha elementlarni yo‘q qilishdir.

Shu nuqtai nazardan, jamiyat transformatsiyalashuvida ijtimoiy-madaniy tizimning dinamikligi muhimdir. 1950-yillarda L.Bertalanfi jamiyatdagi umumiy tizimlar nazariyasini o‘rganishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni nazariy va empirik tahlili uchun metodologik asos sifatida foydalanishni taklif qilgan edi. Dastlab, uning nuqtai nazari “asosan mavhum va nazariy g‘oya sifatida” paydo bo‘ladi. “Jamiyatni tizimli transformatsiyalash” tushunchasi sifatida “tizim muhandisligi, tizim tadqiqoti, tizim tahlili kabi atamalar bilan ishlatiladi”[5]. Jamiyat transformatsiyalashuviga oid ilmiy

adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiymadaniy texnologiyalarni foydalilik jihatlarini o'zida namoyon qiladi.

Jamiyat taraqqiyotida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihat borki u "ijtimoiysiyosiy o'zgarishlar"dir. Yangilanayotgan O'zbekistondagi o'zgarishlar jarayoni jamiyat va davlat boshqaruvini tubdan isloh qilish orqali amalga oshiriladi. Dunyo tajribasini o'rganadigan bo'lsak "Germaniyada boshqa mamlakatlarning, birinchi navbatda, amerikaliklarning ishlatgan "transformatsiya" atamasini kamdan-kam ishlatib, undan odatiy "tranzit" yoki "demokratizatsiya"ni afzal ko'rganlar. Ko'pgina Yevropalik tadqiqotchilar transformatsiyani siyosatshunoslik tahlilining mustaqil birligi sifatida ajratib ko'rsatmasdan, demokratlashtirishning bir qismi" deb hisoblashgan. Shunday qilib, jamiyat transformatsiyasi "ijtimoiy-siyosiy transformatsiya" tushunchasi bilan integrallashgan bo'lib, bu jarayon ijtimoiysiyosiy tizimning boshqasiga o'tishdan iborat transformatsiya jarayoni sifatida turli vektorlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlat rivojlanishi va ularni prognozlashning murakkab jabhasidir. Bizningcha, ushbu transformatsiya jarayoni tashqi omillar ta'sirida ham, ma'lum bir ishtirokchining xohishiga ko'ra ham, tizimning o'zida to'plangan tabiiy impuls natijasida ham sodir bo'lishi mumkin

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mustahkam tayanchi va suyanchi bo'ladigan tarixiy-ma'naviy omil, ya'ni bizning eng kata boyligimiz - xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyatidir" [1; 31-b]. Bu esa jamiyat transformatsiyalashuvini amalga oshirishda ijtimoiy-madaniy omili sifatida intellekt egalarining salohiyatini alohida ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Demak, insonlarning bilish faoliyati natijasidagi tasavvurlari, dunyoqarashi va ilmiy tafakkuri asosida shakllanadi. Bizningcha bu jarayon hodisalar mohiyatini bilish, haqiqatni anglashga undaydi [15; 16-b].

MUHOKAMA

Jahon tajribasida global ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnologik o'zgarishlar yuz bermoqda va oliy ta'lim tizimini isloh qilish va ularning faoliyatida innovatsion yondashuvlarni joriy etish amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Stanford universiteti (AQSh), Massachusetts texnologiya instituti (AQSh), Seul kiber universiteti (Janubiy Koreya), Britaniya menejment instituti (Buyuk Britaniya), shuningdek Stavropol davlat universiteti (Rossiya) kabi ko'plab rivojlangan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim intellektual axborot tizimlarini yaratishga katta e'tibor berilmoqda. Ilg'or oliy ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyo miqiyosida oliy ta'lim muassasasining asosiy bo'linmalaridan biri bo'lgan kafedra faoliyatidagi jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beruvchi intellektual

platformalardan foydalanish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha pedagogik ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamiz so'ngi yillarda raqamli jamiyatni yaratish bo'yicha ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, ta'lim samaradorligi va sifatini tubdan oshirish hisobiga ta'lim sohasini tashkil etish va rivojlantirishga e'tibor kuchaytirilmoqda, fuqarolar va tashkilotlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan teng foydalanishdagi afzalliklari ta'minlanmoqda.

Ta'lim tizimini raqamlashtirish, qarorlar qabul qilishning zamonaviy usullarini joriy etish, axborot resurslarni samarali qo'llash, "Raqamli universitet" [2] loyihasi doirasida raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, ochiqlik va shaffofligini ta'minlash; oliy ta'lim tizimida o'quv, ma'muriy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish; oliy ta'lim muassasalari, talaba, va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida uzviylikni ta'minlash; tashkiliy jarayonlari uchun sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va mehnat samaradorligini oshirish; ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish; tahliliy ma'lumotlarni olish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Respublikamizda ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari R.X.Djurayev [8], U.I.Inoyatov [21], R.Sh.Axliddinov [4], S.T.Turg'unov [26], O..S.Abdullayeva [3] va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

MDHda ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari N.G.Ivansivskaya [20], V.A.Kachalov [22], V.I.Maslov [11], Yu.P.Morozov [12], N.Pogrebnya [24]lar oliy ta'limni innovatsion rivojlanishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, Ye.M.Bachinskaya [7], M.V.Klarin [17], D.I.Kokurin [23], V.A.Slastenin [25] va xorijda R.L.Daft [9], P.Drucker [10], M.Meskon [13], M.Warner [14]va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari asosida ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-fevral kuni soha va hududlarda raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi yorqin dalilidir. Mazkur yig'ilishda nafaqat muntazam axborotni qayta ishlash, saqlash va avtomatlashtirish orqali, balki innovatsion usullar, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda modellashtirish orqali oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan intellektual axborot tizimlarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilganligi tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot davomida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlar o'rganildi. Xususan, U.Sh.Begimqulov, R.X.Djurayev, S.Yu.Nikiforova, N.F.Ryuxova, N.A.Tretyak, S.T.Turgunov [26]larning ishlarida oliy ta'lim muassasasi tizimidagi

asosiy tarkibiy bo'linmalardan biri bo'lgan kafedraning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy faoliyatlarini tashkil etishda axborot texnologiyalari, jumladan, intellektual axborot tizimlaridan foydalanish asosida ta'lim sifatini ta'minlash masalalarini hal etishga alohida o'rin berilgan.

Kafedra faoliyatining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari ham takomillashtirilgan. Buning uchun kafedra faoliyatining mavjud tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilindi, xususan V.V.Bikovskiy tashqi va ichki muhit bilan o'zaro ta'sir qilish orqali faoliyatni amalga oshirishni, N.V.Gerova – ma'lumotlarning dolzarbligi va yetarliligini an'anaviy (qo'lda) nazorat qilishni, O.V.Grigorash kafedra xodimlari va faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muhitni yaratishni taklif qilishgan.

Hozirgi vaqtda ushbu tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar yetarli emas, chunki kafedra faoliyatining samarali tashkil etish uchun uning barcha darajalarida ta'limni zamonaviy tashkil etish asosida boshqariladigan intellektual texnologiyalardan foydalanish lozim. Shuning uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiritildi: strategik rivojlanish bo'yicha qarorlarini qabul qilish asosida ta'limni takomillashtirishda o'z vaqtida o'zgartirishlarga munosabat bildirish, kafedraning barcha jarayonlarini uzluksiz monitoringini ta'minlash, dinamik o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitlariga tezkor munosabatni ta'minlash, innovatsion faoliyatni motivatsiya mexanizmini rivojlantirish. Ushbu tashkiliy-pedagogik shartlarni amalga oshirish natijasida kafedraning implementatsiya mexanizmidan (intellektual axborot muhitini amaliy amalga oshirishni ta'minlash vositalari majmui) foydalangan holda ta'lim sifatini, o'z-o'zini baholash, bashorat qilish va strategik rejalashtirish imkonini beruvchi ma'lumotlarni intellektual tahlil etish va vizualizashtirish orqali axborot kommunikatsiya muhitini rivojlantirishni ta'minlash amalga oshiriladi [3; 17-b].

NATIJA

Kafedraning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy jarayonlari bo'yicha intellektual qarorlarni qo'llab-quvvatlash axborot tizimini loyihalashni funksional tarkibiy-mantiqiy baholash orqali e-pedagog.uz intellektual axborot portalini ishlab chiqilgan. Yaratilgan intellektual portalning kafedra professoro'qituvchilariga o'zini o'zi nazorat qilish, reyting natijalariga asoslanib o'z faoliyatini strategik rejalashtirish, o'quv ma'lumotlar bazasini rivojlantirish va intellektuallashtirish; talabalarning o'quv-bilish faolligini va motivatsiyasini intellektualizatsiya va vizualizatsiya texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish asosida oshirish; kafedra mudiriga barcha rejalarni bajarilish monitoringini olib borish, shaffoflik asosida baholash, prognozlash va strategik rejalashtirish, samarali qarorlarni qabul qilish uchun statistik ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari ochib berilgan.

Oliy ta'limni innovatsion rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlari aniqlanib, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan universitetning asosiy tarkibiy bo'linmalaridan biri

bo'lgan kafedra faoliyati samadorligini oshirish muammosi o'rganilmoqda. O'rganish natijalari kafedrada o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy jarayonlarini intellektuallashtirish zarurligini ko'rsatgan. Ushu maqsadda kafedra faoliyatining mavjud bo'lgan maqsadli, mazmunli va tarkibiy parametrlari o'rganildi. Oliy ta'limning innovatsion rivojlanish sharoitida ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqasini mustahkamlash, ilmiytadqiqot faoliyatini tijoratlashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi parametrlarini ko'shish taklif etilib, barcha maqsadli, mazmunli va tarkibiy parametrlarni matritsa tuzilmasiga keltirilgan [3; 26-b].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limni innovatsion rivojlantirish sharoitida kafedra faoliyatining intellektual tizimini yaratish va undan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish dolzabrligicha qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston. 2022. – B.59.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O'zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
3. Abdullayeva O.S. Oliy ta'lim muassasalari kafedrasi faoliyatining axborot-intellektual tizimini yaratish va foydalanish texnologiyasini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – B.17.
4. Ахлиддинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования: Автореф. дис. ... доктора. педагог. наук. – Ташкент: ТГПУ им. Низами, 2000. – С.44.
5. Берталанфи Л. Общая теория систем - критический обзор. www.philos.msu.ru/libfiles.
6. Валлерстайн И. Анализ мировых систем и ситуация в современном мире. – Москва: 2001. – С.45.
7. Бачинская Е.М. Механизм формирования инновационного образовательного пространства // Педагогика и психология. – 2001. – № 1. – С.79-88.
8. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. – Т.: Voris-Nashriyot, 2012. – 167 б.
9. Daft R.L. Management. 8th ed. / Per. from English. Ed. P. Mordvin. – St. Petersburg: Peter, 2010. – P.800.

10. Drucker P. The Practice of Management (1954). Russian-language edition: Practice of Management. - М.: "Mann, Ivanov and Ferber", 2015. - P.416. - ISBN 978-5-00057-373-0.

11. Маслов В.И. Научные основы и функции процесса управления учебными заведениями: учеб. пособие. // В.И.Маслов. - Т.: Астон, 2010. - 150 с.

12. Морозов Ю.П. Инновационный менеджмент: учеб. пособие для вузов / Ю.П. Морозов. - М.: ЮНИТИ ДАНА, 2000. - 446 с.

13. Meskon M., Albert M., Hedouri F. Fundamentals of management (Management). Publisher: Delo, 1997. - 704 p. ISBN 0-06-044415-0, 5-7749-0047-9.

14. Warner M. Classics of management. / Translation from English. Ed. Yu.N. Kapturevsky. - St. Petersburg: Peter, 2001. - 1168 p.

15. Yuldashev S.U. O'zbekistonda jamiyat transformatsiyalashuvi: ijtimoiy-madaniy texnologiyalar va strategik dasturlash: falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Namangan, 2024. - B. 16.

16. Yunusova M.P. O'zbekistonda mahalla tizimi transformasiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili: falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon. 2023. - B. 18.

17. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. - М.: Арена, 1994. -223с.

18. Григоренко, Д.Е. (2011). Трансформация общества и его неуправляемость. Среднерусский вестник общественных наук, (3), - С. 30-35.

19. Зубенко С.А. Трансформация социально-экономических систем: тенденции и факторы // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2009. № 3. - С. 303-308.

20. Иванцовская Н. Г., Буров В. Г. Модель управления инновационным процессом на кафедре // Университетское управление: практика и анализ. - 2004. - N 1(30). - С. 69-76.

21. Иноятлов У.И. Теоретические и организационно методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: Дис. ... дра пед. наук. - Ташкент: «ИССПО», 2003. - 330 с.

22. Качалов В.А. Проблемы управления качеством в вузах. Заметки менеджера по качеству. Ч. 7. Вузы России и современные методы менеджмента качества: простое признание или активное внедрение. // Стандарты и качество. - 2000. - N 12. - С. 82-87.

23. Кокурин Д.И. Инновационная деятельность. - М.:Экзамен, 2001. - 576 с.

24. Погребная Н. Принципы инновационной управленческой деятельности руководителя учебного заведения / Погребная Н. //Образование. - 2006. - №2. - С. 96-100.

25. Сластенин В.А. Педагогика: Инновационная деятельность / В.А.Сластенин, Л.С.Подымова - М.: ИЧП «Издательство Магистр», 2007. - 224 с.
26. Тургунов С.Т. Теоретические основы управленческой деятельности директора средних общеобразовательных учреждений: Автореф. дис. ... доктора. педагогич. наук. - Ташкент: Уз.НИИПН Т..Н.Кары-Ниязова, 2007. - 43 с.
27. <https://cyberleninka.ru/article/n/transformsitsiya-jarayonida-davlat-va-jamiat-munosabatlari-va-ularning-o-zaro-ta-siri/viewer>